

XORIJIY TILLARNING RAQAMLI MEDIADISKURSGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR**Khalimjonova Shaxnoza Mamurdjonovna**

Xalqaro Qishloq Xo'jaligi Universiteti

Ingliz tili assistent o'qituvshisi.

khalimjonovashaxnoza@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248650>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarning raqamli mediadiskurs shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Globalizatsiya, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida xorijiy tillardan, ayniqsa ingliz tilidan kirib kelayotgan atamalar, kommunikativ uslublar va madaniy unsurlar raqamli axborot maydonining shakllanishida muhim o'rin tutmoqda. Tadqiqotda xorijiy tillarning mediadiskursdagi lingvistik, pragmatik va sotsiokulturologik jihatlarini o'rganiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, raqamli mediadiskurs, globalizatsiya, ingliz tili, internet, lingvistik ta'sir, kommunikativ madaniyat.

Kirish

So'nggi yillarda raqamli mediadiskurs insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn nashrlar va multimedia platformalarida shakllanayotgan matn va muloqot turlari zamonaviy til taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tili, xalqaro kommunikatsiya tili sifatida nafaqat ilmiy-texnik sohada, balki kundalik raqamli diskursda ham faol qo'llanilmoqda. Bu holat milliy mediadiskursga yangi lingvistik birliklar, uslubiy shakllar va madaniy kodlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism**Xorijiy tillarning raqamli mediadiskursdagi lingvistik ta'siri**

Internet muhitida ingliz tilidan o'zlashgan so'z va iboralar: "like", "post", "comment", "trend", "stream" kabi birliklar.

Neologizmlarning tez kirib kelishi milliy til leksikasini boyitadi, biroq o'zlashtirish jarayonida fonetik va morfologik moslashuv yuz beradi. chat (inglizcha) → chatlashmoq (o'zbekcha fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilgan), like → layk → layklamoq, layk bosmoq (ot va fe'l shakllari hosil qilingan), post → post qilmoq (fe'llashgan shakl), stream → strim → strim qilish (o'zbekcha affiks orqali morfologik moslashuv yuz beradi), online → onlayn dars, onlayn savdo, offline → oflayn uchrashuv, trend → trend mavzu, trend bo'lish.

Shu tariqa, xorijiy so'zlar milliy tilga kirib kelganda talaffuz, yozuv va grammatik tizimga moslashadi. Bu jarayon milliy til leksikasini boyitadi, lekin haddan tashqari ko'p o'zlashmalar tilning o'z tabiiy me'yoriga salbiy ta'sir qilishi ham mumkin.

Pragmatik omillar

Onlayn muloqot tezkorligi sabab qisqartmalar va inglizcha iboralarning keng qo'llanilishi: "IMO" (In My Opinion), "LOL" (Laughing Out Loud). BRB (Be Right Back) → "Hozir qaytaman", tezkor suhbatlarda qo'llaniladi, BTW (By The Way) → "Aytgancha", OMG (Oh My God) → "Voy xudo!", "Voy!", Zoom uchrashuv – onlayn yig'ilish.

Bu hol tilning iqtisodiyligi, vaqt tejash va auditoriyaga tez yetib borish ehtiyoji bilan bog'liq.

Sotsiokulturologik omillar

Global madaniyat elementlari raqamli platformalar orqali mahalliy diskursga kirib keladi.

Xorijiy tillarda yaratilgan kontent yosh avlod dunyoqarashini kengaytiradi, biroq milliy madaniy qadriyatlarning soʻnish xavfini ham keltirishi mumkin.

Globalizatsiya jarayonida raqamli platformalar (YouTube, TikTok, Instagram, Netflix va boshqalar) nafaqat lingvistik, balki madaniy oqimlarni ham bir hududdan boshqasiga tez va keng koʻlamda olib oʻtmoqda. Xorijiy tillarda yaratilgan kontent yosh avlod uchun yangi gʻoyalar, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarni targʻib qiladi. Hozirgi kunda yoshlar xorijiy madaniyat bilan tanishadi, dunyoqarashi kengayadi. Turli xalqlarning urf-odatlar, taomlari, sanʼati va hayot tarzi bilan tanishish orqali multimadaniy kompetensiya shakllanadi. Ingliz tilidagi TED Talks yoki koreys tilidagi taʼlimiy vloglar yoshlar uchun bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga uning salbiy jihatlari ham shakllanmoqda, mahalliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va anʼanalar yoshlar orasida ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Oʻzbekona mahalla yigʻinlari, hashar yoki choyxonadagi muloqot kabi qadriyatlar asta-sekin raqamli muloqot (onlayn chatlar, gaming platformalari) bilan almashtirilmoqda.

TikTok va Instagram orqali keng tarqalgan “challenge” va “trend”lar koʻpincha mahalliy mentalitetga zid boʻlishi mumkin (masalan, raqs, kiyinish uslubi, inglizcha va koreyscha aralash nutq). Yoshlar onlayn suhbatda tez-tez inglizcha yoki koreyscha soʻzlarni aralashtirib ishlatadi:

“Bugun new trend chiqibdi”, “K-pop concertga bormoqchiman”. Bu global madaniyatning til orqali kirib kelishidir.

Bu nafaqat tilde balki kiyim-kechakda ham koʻrinadi. K-drama yoki turk seriallari taʼsirida yoshlarda xorijiy kiyinish uslublari keng yoyilmoqda. Milliy liboslar kamroq ishlatilmoqda, ularning oʻrnini brendli kiyimlar egallamoqda.

Milliy taomlarimizda oʻzgarishlarni kuzatamiz: fast-food (pizza, burger, sushi) isteʼmoli milliy taomlar – somsa, lagʻmon, palovdan koʻra yoshlar orasida koʻproq “zamonaviy” deb qabul qilinmoqda.

Anʼanaviy gap-gashtak, koʻrik-tanlov oʻrniga yoshlarda Netflix seriallarini birgalikda koʻrish yoki onlayn oʻyinlarda (PUBG, Fortnite) muloqot qilish odati keng tarqalmoqda.

Xorijiy tillarda yaratilgan kontent yosh avlodni dunyoga ochadi, lekin mahalliy madaniy qadriyatlarning susayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bois raqamli madaniyatni boshqarish – milliy qadriyatlarni global oqimlar bilan uygʻunlashtirish muhim masalalardan biridir.

Tahlil va natijalar

Oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, xorijiy tillarning, ayniqsa ingliz tilining taʼsiri ikki tomonlama xususiyatga ega:

Ijobiy jihatlar: milliy mediadiskursni boyitish, xalqaro integratsiyani kuchaytirish, texnologik yangiliklarni tez qabul qilish.

Salbiy jihatlar: milliy til meʼyorlarining buzilishi, keraksiz oʻzlashmalar koʻpayishi, mahalliy kontentning xorijiy standartlarga boʻysunishi.

Xorijiy tillar taʼsiri muqarrar jarayon boʻlib, uni toʻxtatish emas, balki boshqarish muhimdir. Shu bois milliy mediadiskursni rivojlantirishda til siyosatini kuchaytirish, milliy til asosidagi muqobil atamalar yaratish, hamda raqamli savodxonlikni oshirish orqali xorijiy atamalardan oqilona foydalanishni targʻib qilish.

Xulosa

Xorijiy tillarning raqamli mediadiskursga taʼsiri global jarayon sifatida namoyon boʻlib, u lingvistik, pragmatik va sotsiokulturologik jihatlarida oʻz aksini topmoqda.

Bu jarayon milliy til taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga muayyan tahdidlarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun xorijiy tillarning ta'sirini o'rganish va boshqarish milliy mediadiskurs barqarorligi uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Crystal D. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2011.
2. Fairclough N. *Media Discourse*. London: Arnold, 1995.
3. Jenkins H. *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. New York: NYU Press, 2006.
4. Karimov M. **Raqamli mediadiskurs va til o'zgarishi**. Toshkent: Fan, 2022.
5. Xudoyberganova D. **Globalizatsiya jarayonida o'zbek tilining rivoji**. Toshkent: Ma'naviyat, 2021.